

Kurbonov Xurshidbek Pozilovich
Alfraganus University tadqiqotchisi
xurshidbekkurbanov6633@gmail.com
Orcid ID: 0000-0003-2651-3392

“AVESTO”DA TA’LIM-TARBIYAGA MUNOSABAT

Annotatsiya. Ushbu maqolada zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da ta’lim-tarbiya masalasiga munosabat, jamiyatda pedagogik madaniyatni shakllanishining ahamiyati bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: yoshlar, ta’lim, tarbiya, yaxshilik, yomonlik, ota-ona, tarbiyachi.

ОТНОШЕНИЕ К ОБРАЗОВАНИЮ В «АВЕСТО»

Аннотация. В данной статье зороастрийская священная книга «Авеста» описывает отношение к вопросу образования и значимости формирования педагогической культуры в обществе.

Ключевые слова: молодежь, образование, воспитание, добро, злой, родитель, наставник.

ATTITUDE TOWARDS EDUCATION IN “AVESTA”

Abstract. In this article, the zoroastrian holy book "Avesta" describes the attitude towards the issue of education and the importance of the formation of pedagogical culture in society.

Key words: youth, education, upbringing, good, evil, parent, mentor.

Kirish. Bolani hayotga tayyorlash, jamiyatning rivojlanishiga oʻz hissasini qoʻsha oladigan yetuk inson sifatida tarbiyalash zardushtiylik ta’limotining qonun-qoidalari asosida qat’iy belgilangan. Avvalo, bola tugʻilgan makonda oʻrnatilgan turmush madaniyatiga kunlar, oylar, yillar davomida kuzatish, anglab yetish orqali koʻnikib borgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. X.Pulatov, A.Eshamonov, D.Yusubov, Z.Kadirova, M.Melikova, D.Raximova, T.Ismoilov kabi olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda qishloq sharoitida tabiatni muhofaza qilish madaniyati, ekologik ongni shakllantirish, yosh kadrlarning madaniy dunyoqarashini oʻstirish

masalalari, yoshlar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishini bajarish davomida ilmiy bilishning analiz, sintez, mantiqiy yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yetti yoshgacha bolalarga tizimli ta’lim berilmagan boʻlib, faqat zardushtiylikning qonuniyatlari bilan tanishtirilgan. Bu yoshgacha zardushtiylar oʻz bolalarini Axriman (yovuz ruh) gunohlari va ta’siridan uzoqda deb hisoblashgan. Bola yetti yoshgacha toʻlgan paytda muqaddas belgilar bilan maxsus

kiyim kiygan va yetti yoshda bola yaxshi va yomoni ajrata olishini hisobga olib, unga ma'lum vazifalar yuklatilgan... "Avesto"da bolalarga ta'lim va tarbiya berish shakllari quyidagicha amalga oshirilgan: diniy-ahloqiy tarbiya; jismoniy tarbiya; o'qish va yozishga o'rgatish [1].

Yomon tarbiyachi o'z ta'limi bilan ilohiy so'zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob aylaydi. Haqiqatda u odamlarni rostlikning bebaho sarmoyasidan va ezgu niyatidan bahrasiz aylaydi. Haqiqatda, o'shalar tiriklikni tubanlikka itarib tashlashadi. Ular kazzob durvandlarni ulug' sanab, ko'klarga ko'taradilar. Ayol va erlarni ilohiy kalomlardan bahrasiz qoldiradilar. Ey Mazda! Ular haqiqat yo'lidagi ashavanlarga g'ov bo'ladilar. Ular bu ta'limotlari bilan insonlarni eng solih amallaridan man etadilar. Ular olamlar ahli tirikligini o'zlarining adashtiruvchi hukmlari bilan parishon etadilar. Tarixiy manbada yomon muallim, odamlarni to'g'ri yo'ldan qaytarib, johiliyat sari yetaklaydi, Vatan ravnaqi, odamlarning ijodiy mehnatini ko'ra olmaydi, yer ochib, yerni shudgor qilib, halol mehnat bilan ekin ekkanlarga, bog'dorchilik, ziroatchilik bilan shug'ullanib, chorvani ko'paytirib, bunyodkorlik qilganlarga yomon ko'z bilan qarab, odamlarni bebaho an'analardan mahrum qiladilar [2].

"Avesto"da ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlar, ustozning talabaga, ustozning donishmandga, donishmandning yosh avlodga

qaratilgan nasihatlar asosida 3 ming yil avvalgi ta'limiy-tarbiyaviy jarayon yondoshuvlarini o'rganish mumkin. Jumladan "Andarz-u danag mard" qo'lyozmasida donishmand o'g'liga yuzlanib, pand-nasihat qiladi, o'rgatadi, buyuradi: "O'g'lim qo'rquvni his qilmaslik uchun gunohsiz bo'ling. Boy bo'lish uchun aqlli bo'ling. Yaxshi do'stlar borligiga shukr qiling... Qarindoshlar va do'stlarga itoat qiling va ustozingiz bilan janjallashmang, [1] deyilgan.

Zardushtiylik diniga ko'ra, farzand o'z ota-onalarining salbiy jihatlari uchun javobgar hisoblanmagan, balki ota-onalar farzandlarining noto'g'ri tanlovidan himoya qila olmasalar ular javobgar hisoblangan. Ota-onalarga qaratilib shunday deyiladi. "Agar farzand yomonlikka moyil bo'lib tug'ilgan bo'lsa, bu sizning muammoingiz, siz shunday bolalarga loyiqsiz, chunki ularni siz tarbiyalagansiz" deyiladi [1]. Shu tariqa ta'limotda pedagogik madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda bu talablar yanada qonuniylashtirilib, konstitutsiyaviy asoslangan, ya'ni "Ota-onalar va ularni o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar" [3].

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov bu haqda

quyidagi fikrlarni bildirgan: Oilada qancha bola bo'ladi – buni ota-onaning o'zi hal qiladi. Har kim o'zi aql bilan o'ylab, salomatlikni, imkoniyatni hisobga olib xulosa chiqarsin. Faqat bitta sharti bor – tug'ilgan bola sog'lom o'ssin, ulg'ayib voyaga yetgach, jamiyatimizning barkamol a'zosi bo'lsin, yangi quriladigan oiladan

yanada sog'lomroq avlod bunyodga kelsin [4].

Xulosa. Shu tariqa ezgulik va insonparvarlikni himoyalash xalqimiz mentaliteti va ma'naviyatining muhim tarkibiy qismiga, hayotiy faoliyatining asosiy yo'nalishiga aylandi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кошонова Н.М. Авесто халқ педагогикасининг қадимий манбаси сифатида. Academic Research in Educational Sciences. May, 2022. – Б. 833–835. <https://ares.uz/storage/app/uploads/public/629/27c/9cd/62927c9cd2ea3433844150.pdf>
2. Сапаров Б.Б., Сапаров А.Б. Авестода одоб-ахлоқ масаласи. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/avestoda-odob-ahlo-masalasi>
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон. 2023. – Б. 30.
4. Каримов И.А. Соғлом авлод тарбияси – барчамизнинг муқаддас инсоний бурчимиз. Соғлом авлод давлат дастурини тасдиқлашга бағишланган мажлисда сўзланган нутқ. 2000, 24 февраль. // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 8-жилд. – Б. 427.
5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент. 2021.